



YUNESKO ishlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi

National Commission
of the Republic of Uzbekistan for UNESCO

O'zbekiston, Toshkent, 100084, Amir Temur shoh, 107 B-uy / 107 B, Amir Temur Avenue, Tashkent, 100084, Uzbekistan
tel: (+998-90) 186-06-13 e-mail: info@unesco.uz e-xat: ncu@exat.uz

2022-yil 12 - 12 № 233 / 122

Vazirlik va idoralarga
(ro'yxat bo'yicha)

“Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish” nomli YUNESKO/Hamad bin Isa Al-Xalifa mukofotining 2022-yil uchun tanlovi e’lon qilindi.

Ma’lumot uchun: Mazkur mukofot Bahrayn Qirolligi tomonidan 2005-yilda ta’sis etilgan bo’lib, ta’lim imkoniyatlarini oshirish uchun yangi texnologiyalardan foydalanish bo’yicha innovatsion loyihalarni qo’llab-quvvatlashdan iborat.

2022-yil uchun tanlov mavzusi – “Jamoat platformalari orqali raqamli ta’lim resurslaridan barchani foydalanishini ta’minlash” (*The use of public platforms to ensure inclusive access to digital education content*). Tanlovda raqamli ta’lim platformalaridan va raqamli resurslardan barchaning foydalanishini ta’minlagan, shuningdek, barcha o’qituvchi va o’quvchilarning ta’lim olishi va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam bergan loyihalar taqdim etilishi mumkin (*batafsil ma’lumot ilova etilmoqda*).

Dunyoning turli mamlakatlaridan 2 ta innovatsion loyiha tanlanib, 25 000 AQSH dollari bilan taqdirlanadi. Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar joriy yilning 23-yanvar kuniga qadar quyidagi veb-sahifa orqali ro’yxatdan o’tib: www.unesco.org/ict-ed-prize/register, nomzodnoma shaklini to’ldirishi (*ingliz yoki fransuz tillarida*) lozim.

Nomzodnomalar YUNESKO ishlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi kotibiyati tomonidan saralanadi va tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

Ko’rib chiqish uchun kiritilmoqda.

Ilova: 9 varaq.

Bosh kotib

G.Umerova

Vazirlik va idoralar

1. Innovatsion rivojlanish vazirligi
2. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi
3. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
4. Xalq ta'limi vazirligi
5. Maktabgacha ta'lim vazirligi